



imkoniyati qanday bo'lishi haqida ham muayyan ma'lumotga ega bo'lingan.

Qayd etish lozimki, davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan buyon mamlakatimizda aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilmagan. Bu tadbir so'nggi bor sobiq sho'ro davrida, aniqrog'i, 1989-yilda o'tkazilgan. Ammo BMT tavsiyasiga binoan, har bir davlatda aholini ro'yxatga olish tadbirlarini kamida har 10 yilda bir marotaba o'tkazish tartibi belgilangan. Qaysi yil va yilning qaysi davrida o'tkazish har bir davlatning imkoniyati va sharoitidan kelib chiqib belgilanadi.

Moziyga nazar soladigan bo'lsak, qariyb 130 yil mobaynida O'zbekiston dastlab Rossiya imperiyasi, so'ngra sobiq ittifoq tarkibida bo'ldi. Shunga tayanib, aholini ro'yxatga olish chora-tadbirlarida respublikamiz 9 marotaba ishtirok etgan.

**– Aholini ro'yxatga olish bo'yicha galdagi tadbir qachon bo'lib o'tadi?**

– Aholini ro'yxatga olish bo'yicha navbatdagi tadbir 2022-yilda bo'lib o'tadi. Aynan kalendar yilining qaysi vaqtda o'tishi bo'yicha hali qaror qabul qilingani yo'q. Alohida qayd etish joizki, shu davrga qadar sinov asosida aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni tashkil etish, uning natijalarini tahlil qilish va shu asosda metodologik hujjatlarni takomillashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

**– Muqaddam o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tartibidan navbatdagisi qanday ko'rsatkichlari bilan farq qildi?**

– Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, yuqorida aytganimizdek, bizda uzoq yillar davomida aholini yaxlit ro'yxatga olish chora-tadbirlari

amalga oshirilmadi. Biroq tanlanma kuzatuv asosida ko'pi bilan aholining 10 foizini qamrab olgan tadbirlar bo'lgan, albatta. Tanlanma kuzatuv manzarani to'liq va tekis ochib bermagan.

Oldin bo'lib o'tgan tadbir bilan 2022-yilda bo'lib o'tadigan tadbirda quyidagi tafovutlar namoyon bo'lishi ehtimoldan xoli emas:

birinchidan, omma muqaddam internet va AKT dan foydalanmagan, ro'yxatga olishning birlamchi ma'lumotlari faqat qo'lda va qog'ozda to'ldirilgan;

ikkinchidan, u davrda mulk shakllari hozirgidek xilma-xil va rang-barang bo'lmagan;

uchinchidan, mamlakatlar o'rtasida aholi migratsiyasi deyarli bo'lmagan, hozirda bu ko'rsatkich har tamonlama kengaydi va o'zgardir;

to'rtinchidan, aholining daromad manbalari ko'pi bilan ikkita bo'lgan va juda kam aholi qatlami undan daromad topgan. Hozirda bu ko'rsatkich doirasi keskin kengaydi, daromad olayotgan aholi soni va daromad manbalari ham ancha ko'paygan;

beshinchidan, muqaddam «millati» degan ko'rsatkich bo'lgan, biroq «fuqaroligi» degan ko'rsatkich bo'lmagan. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich ham asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki, endilikda mamlakatimizda bir necha o'nlab elchixonona, konsullik xizmatlari, shuningdek, xorijiy investitsiyaga asoslangan minglab qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu mamlakatimizda xorijlik fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ko'pligidan dalolat beradi.

**– Aholini ro'yxatga oluvchilar qanday tanlanadi va ular moddiy yoki ma'naviy rag'batlantiriladimi?**

– Ushbu masala eng nozik masalalardan hisoblanadi. Chunki, ma'lumotlarning to'g'riligiga bevosita ayni shu ro'yxatga oluvchilar mas'ul bo'ladi. Ular shakllantirgan ma'lumotlar realikni beradigan ma'lumotlar bo'lishi shart. Aholini ro'yxatga olish jarayoniga jalb etiladigan xodimlar har xil yosh va kasbda bo'lishi, birinchi navbatda, davlat statistika qo'mitasi va uning viloyat, shahar va tuman bo'limlari xodimlari, statistika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrlar, shuningdek, tayanch doktorantlar bo'lishi mumkin. Ushbu tadbirda Yoshlar ittifoqi ham o'z tashabbuslari bilan chiqadi, degan umiddaman. Chunki hozirgi kunda ular hur fikrlaydigan jamoaga aylangan va amalga oshirayotgan chora-tadbirlari davr talabiga javob bermoqda. MDH davlatlari tajribasidan ma'lumki, aksariyat hollarda maktab, kollej va akademik litsey o'qituvchilari muayyan tadbirda ixtiyoriy, shaxsiy tashabbusiga asosan jalb etiladi.

Aholini ro'yxatga olishda qatnashadiganlar, internet va kompyuterni yaxshi o'zlashtirgan va ro'yxatga olish varag'ini tushunarli va tiniq to'ldiradigan hamda yuklatilgan vazifani vijdonan ado etadigan shaxslar bo'lishi kerak. Yoshi va kasbidan qat'i nazar, ular uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etiladi va zarurat tug'ilsa, qo'shimcha maslahatlar beriladi.

**– Aholini ro'yxatga olishda mamlakat aholisining faolligini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?**

– Masalani juda to'g'ri qo'yingiz. Statistika va aholini ro'yxatga olish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar qanchalik harakat qilishmasin, aholining o'zi ushbu tadbirda mas'uliyat bilan yondashmasa, faollik ko'rsatmasa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. Shu bois, ushbu tadbir bevosita shu mamlakat aholisining turmush tarzi va farovonligini yaxshilash hamda dunyoda o'z o'rniga ega bo'lish uchun qaratilgan asosiy tadbirlardan biri ekanini yurtdoshlarimiz tushinishi kerak. Aholini ro'yxatga olish

boshlangunga qadar davlat statistika qo'mitasi va joylardagi hokimliklar tomonidan targ'ibot ishlari olib boriladi. Shuningdek, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan aholini ro'yxatga olish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish ishlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish yo'lga qo'yiladi.

**– Aholini ro'yxatga olish qanday usullar orqali olib boriladi?**

– Insoniyatning rivojlanish tamadduni aholini ro'yxatga olishning bir necha



usullarini kashf etishga imkon berdi. Ulardan asosiylari quyidagilar: so'rovnoma, o'zi hisoblash va to'ldirish hamda aralash (anketali) usullardir.

*So'rovnoma usuli.* Ushbu usulning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unga ko'ra, ro'yxatga olish bu boradagi maxsus so'rovnomaning to'ldirishi, ro'yxatga olinuvchi shaxs bilan yuzma-yuz suhbat orqali ro'yxatga oluvchi xodim (*inspektor*) tomonidan amalga oshiriladi.

*O'zi hisoblash va to'ldirish usuli.* Mazkur usulda maxsus so'rovnomaning, odatda, ro'yxatga olinuvchi shaxsning o'zi to'ldiradi. Shuningdek, bir oilada istiqomat qilayotgan aqli raso shaxslar imkoniyati cheklangan farzandlari yoki yaqinlari uchun to'ldirishi mumkin. Ro'yxatga oluvchi xodim



(inspektor) esa so'rovnoma to'ldirilishini nazorat qiladi, xolos.

*Aralash (so'rovnoma) usul.* Ushbu usulda aholini ro'yxatga olish maxsus so'rovnoma ro'yxatga olinuvchilar manziliga pochta yoki internet orqali yuboriladi. Qabul qilib olingach, uni ro'yxatga olinuvchilarning o'zi to'ldirib, aholini statistik ro'yxatga olish byurosiga qaytaradi. Statistik ro'yxatga olish byurosi to'ldirilgan so'rovnomalarga ishlov berib, tekshiruvdan o'tkazadi. Tekshiruv natijasiga binoan, so'rovnoma qaytarilmagan manzillarga so'rov o'tkazish uchun ro'yxatga oluvchi xodim (*inspektor*) larni yuboradi.

#### **- Aholini ro'yxatga olish davomida olingan ma'lumotlarning maxfiyligi kim tomonidan va qanday ta'minlanadi?**

- Jahon tajribasiga tayanib aytadigan bo'lsak, aholini ro'yxatga olishning bir necha tamoyillari mavjud. Shulardan biri, ma'lumotlarning sirlilik va daxlsizlik tamoyili, deb ataladi. Bir so'z bilan aytganda, aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq bo'lgan har qanday shaxs haqidagi ma'lumot, ayni shu maqomdagi boshqa shaxs uchun qat'iy sirligicha qoladi. Bu tamoyilga itoat qilish aholini ro'yxatga olishning asosiy shartlardan biri hisoblangani bois, ro'yxatga oluvchi xodim (*inspektor*)lar ro'yxatga olinuvchilar haqidagi ma'lumotlar sirligini ta'minlashni kafolatlash bo'yicha yozma tilxat beradi. Ro'yxatga olinuvchi shaxs ro'yxatga olish dasturiga qanday ma'lumotni bergan bo'lsa, u ma'lumot faqat ro'yxatga olishning markazlashgan xizmat byurosi, ya'ni Davlat statistika qo'mitasi huzurida tashkil etiladigan yig'ma markazga taalluqli bo'ladi, xolos. Bu yerda shaxsiy ma'lumotlarning nafaqat boshqa shaxslar, balki ushbu tadbir bilan bevosita bog'liq bo'lmagan davlat xodimlariga ham daxlsizligi saqlanib qoladi.

#### **- Aholini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari bilan qanday tanishish mumkin?**

- Yakuniy ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish to'liq poyoniga yetganidan dalolat beradi. Amaldagi me'yoriy hujjatlarga binoan, yakuniy ma'lumotlarni uch tilda e'lon qilish ko'zda tutilgan. Uni tahlil qilish va turkumlash ishlari esa hajmli, shuningdek, qariyb 30 yil

mobaynida aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilmagan. Shular e'tiborga olinib, 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturida aholini ro'yxatga olish natijalarini rasmiy chop etish, tarqatish, axborot bilan ta'minlash va e'lon qilish, aholini ro'yxatga olishning dastlabki va yakuniy ma'lumotlarini arxivda saqlashga tayyorlash muddati 2024-yil 1-dekabr qadar, deb ko'rsatilgan.

#### **- Dunyo mamlakatlari o'rtasida aholini ro'yxatga olishda tafovutlar mavjudmi?**

- Yuqorida zikr etilganidek, BMTning 2015-yil 10-iyundagi «2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar» rezolyutsiyasiga binoan ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan har bir davlatda aholini ro'yxatga olish o'tkazilishi lozim. Tafovutlar bor, albatta. Eslatib o'tish joizki, har bir davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, konstitutsiyaviy tuzumi, xalqaro tashkilotlarga a'zoligi, rejali iqtisodiyoti yoki bozor iqtisodiyoti asosida faoliyat yuritishi kabi ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shu bois ularda aholini ro'yxatga olish tafovutlari bo'lishi tabiiy. Ammo, umumiy ko'rsatkichlar ustuvorligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, ular Yevropa hamjamiyati hamda MDH davlatlarida aholini ro'yxatga olishdagi ko'rsatkichlarda umumiylik ustuvorlik qiladi. Lekin BMTga a'zo bo'lgan ayrim mamlakatlar ham borki, ular sotsialistik hamda diniy konstitutsiyaviy tuzumda faoliyat yuritishadi. Ushbu davlatlarda diniy aloqadorligiga mos ravishdagi savollar ham qaror topishi mumkin. Misol uchun diniy mazhabi: provoslav-katolik, sunniy-shia kabi.

Umuman olganda, mamlakatimizda 2022-yilda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan aholini ro'yxatga olish natijalari nafaqat davlatimiz manfaati uchun, balki BMT tomonidan 2020 raund bo'yicha dunyo aholisini ro'yxatga olish tadbirining tarkibiy qismi sifatida butun dunyo manfaati uchun ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

**Usmon ABDURASULOV,**  
**Davlat statistika qo'mitasi Axborot**  
**xizmati rahbari**



# SOG'LOM AVLOD UCHUN

ISSN 2010-7900

10-son | 2019-yil | OKTABR

*Hilpirab turar mag'rur  
O'zbekiston bayrog'i*

4

Teatrshunoslik

**MILLIY  
MADANIYATIMIZ  
YUKSALISH  
SARI**

16

Huquqiy ma'rifat

**AHOLINI RO'YXATGA  
OLISH JAMIYAT VA  
SHAXS UCHUN  
NIMA BERADI?**

27

Ruhiyat manzili

**AJRIMNING  
BOLA  
PSIXIKASIGA  
SALBIY TA'SIRI**

31

Ko'ngil ko'zgusi

**BOLALARGA  
MEHR VA  
ISHONCH BERING**



# Aholini ro'yxatga olish jamiyat va shaxs uchun nima beradi?



Aholini ro'yxatga olish – muayyan vaqt ichida mamlakatdagi barcha shaxslarga taalluqli demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni to'plash, birlashtirish, baholash, tahlil qilish va tarqatish jarayonidir. U aholi to'g'risidagi eng ishonchli manba hisoblanadi. Bular haqida to'liq ma'lumot olish uchun Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nizomiddin Haydarov bilan bo'lgan suhbatni havola etamiz.

## – Aholini ro'yxatga olish qanday me'yoriy hujjatlarga tayanib amalga oshiriladi?

– Jahon amaliyotiga tayanib aytish mumkinki, aholini ro'yxatga olish ulkan chora-tadbirlardan biri bo'lib, unda mamlakatda istiqomat qilayotgan fuqarolar, xorijlik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va ularning uy-joylari haqida to'liq ma'lumotlar jamlanishi ko'zda tutiladi. Shu bois, bunday tadbirni amalga oshirish mashaqqatli, qolaversa, ham mablag', ham saviyali inson resurslarini talab etadi. Keng ko'lami ekanini e'tiborga olib, aholini ro'yxatga olish bo'yicha yer yuzidagi har bir mamlakatda birinchi rahbar tomonidan maxsus farmon yoki qaror qabul qilinadi va tegishli soha rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunga ta'sir etgan omillardan biri, Birlashgan Millatlar



Tashkilotning 2015-yil 10-iyundagi «2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar» rezolyutsiyasiga tayanib, a'zo davlatlarni 2020-yilda Butunjahon aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish dasturi doirasida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishga taalluqli xalqaro va hududiy tavsiyalarni inobatga olgan holda, kamida bir marta aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazish tavsiyasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni ana shu tavsiyaga binoan qabul qilindi.

Hozircha aholini ro'yxatga olishga asos bo'ladigan me'yoriy hujjatlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-yil 10-iyundagi «2020-yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish borasidagi prinsiplar va tavsiyalar» rezolyutsiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmon.

3. Qabul qilinishi ko'zda tutilayotgan «Aholini ro'yxatga olish to'g'risida»gi qonun.

Qonun qabul qilinganidan so'ng yana ayrim ko'rsatkichlarga oydinlik kiritish imkoniyati tug'iladi.

## – Aholini ro'yxatga olishning obyektiv zarurati nimada?

– Aholini ro'yxatga olish maxsus tashkillashtirilgan, tizimli va yaxlit davlat statistika kuzatuvini ostida bo'lib, undan

ko'zlangan bosh maqsad, ayni paytda mamlakatda istiqomat qilayotgan aholining real soni va tarkibi haqidagi dolzarb, majoziy ma'noda aytadigan bo'lsak, qaynoq ma'lumotlar majmuasini shakllantirishdan iborat. Yana bir xususiyatli tomoni shuki, aholini ro'yxatga olish bir vaqtning o'zida yagona dastur asosida butun respublika bo'yicha olib boriladi. Aholini ro'yxatga olish davlat ahamiyatiga egaligi va keng qamrovli bo'lgani bois, uni o'tkazishga bir necha yil oldin taraddud ko'riladi. Darvoqe, bizda aholini ro'yxatga olish tadbiri 2022-yilda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, ammo yuqorida aytilganidek, respublikamiz Prezidentining farmoni joriy yilning 5-fevralida qabul qilindi.

## Aholini ro'yxatga olishda:

birinchidan, xatlovdagidan farqli o'laroq, doimo haqiqiy va muayyan hududda istiqomat qilayotgan aholi fuqaroligidan qat'i nazar ro'yxatga olinadi;

ikkinchidan, har bir inson haqidagi barcha ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Mana shu ikki ko'rsatkichning o'ziyoq, aholini ro'yxatga olishning aholi haqida ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan har qanday manbadan ustunligini ko'rsatadi.

Aholini ro'yxatga olish natijasida olingan ma'lumotlar asosida butun jamiyat va uning markaziy o'zagi bo'lgan davlatning qisqa, o'rta va uzoq muddatli strategik rejalarini qabul qilishga zamin yaratiladi. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, hattoki har bir viloyat, shahar va tuman byudjetlari daromad manbalarining prognoz ko'rsatkichlarining ham qamrab olinishiga imkoniyat tug'iladi. Ro'yxatga olish natijalariga tayanib, qayerda va qancha yangi maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari, shifoxonalar uchun binolar, kadrlarni tayyorlash, uy-joylar qurish, shuningdek, qayerda yangi transport yo'nalishlarini belgilash kabi jiddiy muammolarga oydinlik kiritish mumkin.

## – Aholini ro'yxatga olish yer yuzi mamlakatlarida qachondan boshlab olib borilgan, mamlakatimizda-chi?

– Tarixiy manbalarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish jarayoni uzoq qadimiy davrlarga borib



taqaladi. Aniqrog'i, davlatchilik shakllanishi bilan aholini o'z davriga mos ravishda ro'yxatga olish jarayoni boshlangan. Ro'yxatga olishning bir necha omillari bo'lgan. Ularning eng asosiylari quydagilar:

birinchidan, davlat o'ziga yuklatilgan vazifalarni ijro qilishi uchun g'aznasiga soliq yig'ishi, soliqlar qancha tushishini oldindan bashorat qilish uchun esa mamlakatda fuqarolarining ro'yxati zarur bo'lgan. Aholini ro'yxatga olishning dastlabki kurtaklari shu zarurat hosilasidir;

ikkinchidan, mamlakatni tashqi va ichki yovdan asrash uchun qorovul, harbiy askar va zobitlarni shakllantirish zarur bo'lgan. Ularning soni qancha, yoshi nechada, tarkibi qanaqa bo'lishini oldindan bilish uchun aholi ro'yxatiga ehtiyoj tug'ilgan. Bu, o'z navbatida, aholini ro'yxatga olish zaruratini keltirib chiqargan.

Aholini ro'yxatga olish dastlab sivilizatsiya rivoj topgan qadimgi Misr, Afina, Rim va Xitoyda shakllangan, keyinchalik, Yevropa mamlakatlarida ham yo'lga qo'yilgan. Rossiyada 1718-yilda Pyotr I tomonidan aholiga jon boshi solig'i joriy etilgan. Shu davrdan boshlab uning aholini ro'yxatga olish borasidagi farmonlari chiqa boshlagan. Ushbu farmonlar bilan mamlakatda yashaydigan erkaklarni ham alohida ro'yxatga olish belgilangan. Shu orqali mamlakatning harbiy